Qabul qilindi: 17-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 19-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 21-noyabr 2026-yil

MUHAMMAD YUSUF ŞE’RLARIDA QÖLLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Bafoyeva Moxina

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Axmedova D.B.

Ilmiy rahbar, BuxDPI professori, filologiya fanlari doktori (DSc)



Annotatsiya: Maqolada Özbekiston xalq şoiri, vatanparvarlik va erk kuyçisi bölmiş Muhammad Yusuf şe’riyatida uçraydigan frazeologik birliklarning (iboralar) jozibadorligi va şe’rga özgaça körk bağişlaşi haqida söz boradi. Özbek tilining qay darajada boy til ekanligini namoyon etuvçi iboralar şe’riy asarlarda insonning his-tuyğulari, ruhiy keçinmalarini ifodalaşda muhim örin tutadi. Uşbu maqolada frazeologik birliklar haqida qisqaça ma’lumot berilib, ularning Muhammad Yusuf şe’rlaridagi örni yoritiladi.

Kalit sözlar: Muhammad Yusuf, şe’riyat, vatanparvarlik, frazeologik birliklar, iboralar, özbek tili, ruhiy keçinmalar, erk.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы патриотизма и силы воли в творчестве Мухаммада Юсуфа, а также образность фразеологических единиц (идиом), встречающихся в его стихотворениях, и их особая связь с поэзией. Анализируется, насколько богат узбекский язык и как идиомы, отражающие богатство языка, используются в художественных произведениях для выражения человеческих чувств, душевных переживаний и эмоциональных состояний. В статье представлена краткая информация о фразеологических единицах и раскрывается их значение в поэзии Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, поэзия, патриотизм, фразеологические единицы, идиомы, узбекский язык, душевные переживания, воля.

Abstract: This article examines patriotism and willpower in the works of Muhammad

Yusuf, as well as the expressiveness of phraseological units (idioms) found in his poems and their special connection with poetry. It analyzes the riçness of the Uzbek language and the extent to whiç idioms that reflect this riçness are used in literary works to express human feelings, emotional experiences, and inner states. The article provides brief information about phraseological units and explores their role in the poetry of Muhammad Yusuf.

Keywords: Mukhammad Yusuf, poetry, patriotism, phraseological units, idioms, Uzbek language, emotional experiences, liberty.

KIRIŞ

Til xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviy boyligini aks ettiruvçi muhim vositadir. Har bir tilning özіga xos xususiyatlaridan biri uning iboralarga, sinonimlarga boyligidir. Iboralar muallif nutqining qisqa, aniq va jozibador bölişini ta’minlaydi. Tilşunoslikda bunday turğun birikmalar frazeologik birliklar deb ataladi. Özbek şe’riyatida qalami kuçli şoirlar talaygina. Ular orasida Muhammad Yusuf alohida örin egallaydi. Şoir özining samimiy, xalqona va betakror şe’rlari bilan öquvçi qalbidan joy olgan. Şe’rlarida, asosan, Vatanga muhabbat, ona xalq dardi, insoniylik va sadoqat kabi mavzular yetakçilik qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Muhammad Yusuf şe’rlaridagi frazeologik birliklarning ahamiyatini örganiş, ularning badiiy vazifalarini kitobxonga tuşuntirişdan iborat.

Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq sözdan taşkil topib, köpinça yaxlit köçma ma’no anglatuvçi turğun birikmalar hisoblanadi. Masalan, özbek tilidagi “köngli toğdek kötarilmoq”, “yuragi ezilmoq”, “böş qotirmoq” kabi iboralar fikrning obrazli va ta’sirçan bölişini ta’minlaydi. Frazeologik birliklar kundalik nutqda ham, badiiy adabiyotda ham keng uçraydi. Ular sözlovçi nutqining yanada jozibali bölişiga xizmat qiladi. Qolaversa, oddiy bayon etiş mumkin bölgan fikr ibora yordamida yanada ta’sirçan va esda qolarli böladi.

1-jadval. Frazeologik birliklarning ma’nosi va badiiy vazifasi

Frazeologik birlik	Ma’nosi
Boşi osmonda	Juda xursand
Boşiga kötarmoq	Hurmat qilmoq; tözitmoq
Köngliga tugmoq	Niyat qilmoq
Yuragi ezilmoq	Qayğurmoq
Köz qoraçiğidek asramoq	Ehtiyot qilmoq

Muhammad Yusuf özbek şe’riyatida öziga xos uslub yaratgan şoirlardan biridir. Uning şe’rlarida xalqona ifoda, samimiylik va sodda bayon muhim örin tutadi. Şoir murakkab fikrlarni ham kitobxonga tuşunarli tarzda yetkazişga intiladi. Muhammad Yusuf ijodining asosiy mavzularidan biri Vatanga muhabbatdir. Şoirning “Vatanim”, “Özbekiston”, “Xalq böl, elim” kabi asarlarida yurtga sadoqat, xalq bilan faxrlaniş va uning dardini eşitiş, milliy qadriyatlarga hurmat ğoyalari ifodalanadi. Frazeologik birliklar şoir şe’riyatini tahlil qilişda alohida ahamiyatga ega. Iboralar şe’r matnida qöllanganda öquvçi tasvirlanayotgan holatni yaxşiroq anglaydi va uning hissiyotiga ta’sir körsatadi. Şe’rning qay darajada xalq orasida sevimli va qadrli bölişi ham aynan şoir qöllagan frazeologik birliklarning mazmuni bilan boğliq.

Muhammad Yusuf şe’riyatini frazeologik jihatdan örganişda quyidagilarga e’tibor qaratiş mumkin:

Insonning his-tuyğularini ifodalovçi iboralar;

Vatan va xalq bilan boğliq obrazli ifodalar;

Ona va yaqin insonlarga muhabbatni ifodalovçi birliklar;

Soğinç, armon va ayriliq ma’nolarini anglatuvçi iboralar;

Xalqona nutq va oğzaki ijodga xos ifodalar.

MUHAMMAD YUSUF QÖLLAGAN FRAZEOLOGIZMLARNING AHAMIYATI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

Jonli xalq tili bilan uyğunlik.

His-tuyğularni kuçaytiriş vositasi.

Milliy ruh va öziga xoslik.

2-jadval. Özbekiston xalq şoiri Muhammad Yusuf şe’rlarida qöllangan frazeologik birliklardan namunalar.

Frazeologik birlik	Ma’nosi	Şe’ri
Tildan qolmoq	Gapira olmay qolmoq	“Ona tilim”
Bağri ezilmoq	Qattiq qayğurmoq	“Ona tilim”
Qon qaqşatmoq	Azob bermoq, qiynamoq	“Ona tilim”
Közdan uyqu qoçmoq	Uxlolmaslik	“Alvido, bolaligim”
Qöli qadoq	Mehnatkaş, zahmatkaş	“Kel, bola...”
Könglini yormoq	Sirini aytmoq	“Alvido, bolaligim”
Yuragi qon bölmoq	Qattiq qayğurmoq	“Bulbul”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Ş. Özbek tilining frazeologik luğati. – Toşkent: Öqituvçi, 1992.

2. Hojiyev A. Özbek tilining izohli luğati. – Toşkent: Özbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

3. Yöldoşev B. Özbek frazeologiyasi va frazeografiyasining şakllanişi hamda taraqqiyoti. – Samarqand, 2000.

4. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toşkent, 2004.

5. Muhammad Yusuf. Xalq böl, elim. – Toşkent: “Özbekiston”, 2018.